

**SOVET TARIXSHUNOSLIGIDA TURKISTON MUXTORIYATI TARIXINI  
O'RGANILISHI**

**Rahmatova Malika Sherzodovna**

*Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti  
3-boshqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada Turkiston muxtoriyati tarixinining sovet tarixshunosligida o'rganilishi yoritilgan. Asosan, Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi sabablari va uning tez fursatlarda tugatilganini sabablarini rus tarixchilari qay tarzdaga o'rganganligi, qanday baho berilgani, qanchalik haqqoniy yoritilgani bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Turkiston Muxtoriyati, muvaqqat, bolsheviklar, mustamlaka, sovet, muxtoriyat, kommunistik, komitet, hukumat, federatsiya, muhojir.*

Darhaqiqat, bolsheviklar turkistonliklarning xohish-istiklari bilan hisoblashmaganlaridan so'ng Turkiston Muxtoriyati hukumati vujudga keldi. Bu hukumat qisqa muddat ichida xalq o'rtaida katta e'tibor qozondi. Nemis va turk tarixshunosligida ta'kidlanganidek, yangi mahalliy hukumat faqat Qo'qonda yoxud Farg'ona vodiysida emas, balki butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub yerli xalqlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlangan.

Buni tarixiy manbalar, voqealar zamondoshlari va 20-30 yillardagi sovet nashrlari ham tasdiqlaydi. Chunonchi, 1931 yilda chop etilgan, sovet tarixshunosligida Turkiston Muxtoriyati tarixiga bag'ishlangan asarida P.Alekseenkoning ta'kidlashicha, Qo'qon muxtoriyati mahalliy, Qo'qon va hatto Farg'ona harakatigina bo'lib qolmasdan, balki butun Turkistonning umumiylar harakati bo'lgan va Turkistonning butun tumanlarini egallagan, millatidan qat'i nazar butun Turkiston burjuaziyasini jalgan va turli bosqichlarda Turkiston aholisining boshqa qatlamlarini ham qamrab olgan.<sup>45</sup>. P.Alekseenko o'z asarida bolsheviklarning milliy masala sohasida yo'l qo'ygan xatolarini ham oshkora ko'rsatib o'tadi. Bolsheviklarning bu xatolari Turkiston muxtoriyati vujudga kelishiga sabab bo'lganini e'tirof etadi<sup>46</sup>.

Muallif Turkiston muxtoriyatining vujudga kelishiga sabab qilib "o'z kapitalidan ayrylган va hukmron mavqeini yo'qotgan milliy burjuaziya va rus burjuaziyasi proletar hokimiyati bilan kelisha olmaganligidadir"<sup>47</sup>, deb uqtirmoqchi bo'ladi, sovet hokimiyatini oqlab, mulkdorlarni qoralashga urinadi. Bu fikrlar nemis va turk tarixshunosligida ilgari surilgan fikrlarga zid bo'lib, 1930 yillardan boshlab Sovet tarixshunosligida Turkiston xalqlarining o'z milliy huquqlari uchun kurashlari, xususan, Turkiston muxtoriyati tarixi buzib, soxtalashtirilib ko'rsatila boshlagan va bu

<sup>45</sup> Алексеенко П. Кокандская автономия. — Т., 1931. — С. 27.

<sup>46</sup> Ўша жойда. — С. 13.

<sup>47</sup> Алексеенко П. Кокандская автономия... — С. 28.

hol 1990 yillarning o'rtalarigacha davom etdi. Tadqiqotlar yangi ma'lumotlar bilan boyisa—da, lekin aniqlangan ma'lumotlar sinfiy, partiyaviy asosda, noto'g'ri talqin etildi. Bu adabiyotlarda ta'kidlanishicha, “muxtoriyat hukumati aksilinqilobiy kuchlardan tashkil topgan, sovetlarga ashaddiy dushman va manfaatiga zid bo'lgan elementlarning yig'indisi edi”. Darhaqiqat, Turkiston muxtoriyati sovet hokimiyatiga qarshi bo'lib, mahalliy aholi bu hokimiyatni qabul qilmaganligi tufayli tuzilgan va Turkiston xalqlari Turkiston muxtoriyati hukumatini o'z milliy hukumati sifatida keng qo'llab quvvatlaganlar, biroq sovet davrida bu haqiqat inkor etildi, aniqrog'i xaspo'shlandi va “Qo'qon muxtoriyati” tuzilishi mexnatkashlarni qattiq g'azablantirdi”<sup>48</sup>, degan mazmundagi soxta qarashlar targ'ib etib kelindi.

Bu haqiqatga to'g'ri kelmasligini, xalq aksincha muxtoriyatni qo'llab-quvvatlaganini tarixiy manbalar ham tasdiqlaydi. 1917 yil 10 dekabrida “Turon” gazetasida 1917 yilning 6 dekabrida Toshkent shahrida Turkiston Muxtoriyatini yoqlab 60 ming kishilik aholi miting o'tkazgani haqida xabar beriladi<sup>49</sup>. Bu mitingda turkistonliklar sinf va daraja ayirmalariga qaramasdan Turkiston Muxtoriyatini olqishlashlarini bildiradilar va o'lkadagi hamma musulmonlarni Turkiston Muxtoriyati hukumati atrofida jipslashishga chaqiradilar. Toshkentdagi yahudiy sotsial-demokratik partiyasi jamiyatni Turkiston muxtoriyatini tabriklab, turkistonda ozchilikni tashkil etuvchi millatlarning huquqlarini ta'min etishlarini tilaydi<sup>50</sup>.

Boshqa gazetalarda ham xuddi shunday mazmundagi xabarlar berilgan. Masalan, “El bayrog'i” gazetasining xabar berishicha, 1917 yil 1 dekabrda Namanganda 10 mingcha kishi ishtirokida muxtoriyatni qo'llovchi yig'in bo'ldi, Jalolobod volostining Xonobod qishlog'ida 6 dekabrda 18, Qo'qonda 7 dekabrda shunday namoyishlar bo'ldi.<sup>51</sup> 13 dekabrda Toshkentda “Turkiston muxtoriyati uchun” shiori ostida namoyish o'tkazildi. Bu namoyishda musulmonlardan tashqari ruslar, yahudiylar, armanlar, shuningdek, bolsheviklardan tashqari turli xil ijtimoiy-siyosiy tashkilotlardan vakillar ishtirok etganligi haqidagi xabar ayniqsa muhim bo'lib, Turkiston Muxtoriyatini o'lkadagi boshqa millat vakillari qo'llab-quvvatlaganligini tasdiqlaydi.<sup>52</sup>

Xorijiy tarixshunoslikda Turkiston Muxtoriyati tarixini yoritgan mualliflar 13 dekabr voqeasiga alohida to'xtalib o'tganlar. Mazkur voqeа qanday sodir bo'lganligiga qisqacha to'xtalib, shuni qayd etish mumkinki, turkistonliklarning ko'tarinki ruhda muxtoriyatni qo'llab namoyish va s'ezdar o'tkazishi bolsheviklarni tahlikaga solib qo'ydi va ular choralar ko'rishga kirishib ketdi. Toshkentdagi 13 dekabr namoyishi

<sup>48</sup> Кўконбоев А. Фарғонада Совет ҳокимиятини ўрнатиш ва мустаҳкамлаш учун кураш. – Т., 1958. —Б. 19-28; Харин В.П. Великая Октябрьская Социалистическая Революция в Узбекистане. – Т., 1958. —С. 118; Ваҳобов М. Ўзбек социалистик миллати. – Т., 1960. —Б. 261-270; Иноятов Х.Ш. Ўзбекистонда октябр революциясининг галабаси. – Т., 1967. —Б. 105-108; Раев Д. Развитие национальных отношений в республиках Советского Востока. Фрунзе. 1968. —С. 84-85; Турсунов Х., Бекназаров Н. Ўзбекистон ССР тарихи. – Т., 1982. —Б. 136-137

<sup>49</sup> Улуг Туркистан. 1917. 10 декабр.

<sup>50</sup> Улуг Туркистан. 1917. 13 декабр.

<sup>51</sup> Улуг Туркистан. 1917. 20 декабр; 1918. 7 январ.

<sup>52</sup> Улуг Туркистан. 1917. 16 декабр.

qatnashchilari o'qqa tutildi, eski shaharlik 16 kishi ana shu to'qnashuv qurboni bo'ldi. Sovet hokimiysi harbiy ishlar bo'yicha komissari Stasikov 13 dekabr kuni quyidagi qarorni imzolaydi: "Toshkent shahri 13 dekabr kech soat 7 dan harbiy holatda deb e'lon qilinadi. Soldat va ishchi deputatlari Toshkent Sovetining ijroiya komiteti shuni Toshkent shahar fuqarolariga yetkazar ekan, "tinchlik saqlash va xalq hukumatining (aslida bir guruh rus bolsheviklari hukmronligini ta'minlagan hukumat – S.Sh.) hamma talablarini bajarishi lozim"ligini talab qiladi, "tartibbuzarlarga va inqilob dushmanlariga" eng qattiq choralar, hatto qurolli kuch ishlatilishi haqida ogohlantiradi.<sup>53</sup>

Mustafo Cho'qay xotirasida 13 dekabr voqeasi "rus bolsheviklari tomonidan bizning xalqqa ko'rsatgan xoinlik kuni" deb baholagan edi. Shu paytdan boshlab turkistonliklar va bolsheviklar orasida ochiq kurash boshlandi.<sup>54</sup>

Nemis tarixchisi Y.Benzing esa bu voqeani "Sovet Rossiyasining muxtoriyatga qarshi birinchi qonli qadami" sifatida baholagan, "namoyishchilarning o'qqa tutilishi bolsheviklarning Turkiston muxtoriyatiga haqiqiy munosabatini ko'rsatib bergenini", "Sovet hokimiysi Turkiston muxtoriyatini yo'qotish uchun kuch ishlatishga kirishganligini" ta'kidlaydi. Xuddi shunday qarashlar keyinchalik Buloq Boshi<sup>55</sup> va Boymirza Hayitlar<sup>56</sup> tomonidan ham ilgari suriladi. Chunonchi, Boymirza Hayit bu voqeani Sovetlarning muxtoriyatga qarshi ilk yirtqichliklari sifatida baholab, bu Turkiston muxtoriyatini yo'qotish yo'lida ilk tajriba edi, deb hisoblaydi.<sup>57</sup>

Lekin o'lkadagi bol'shevikcha rejimning tazyiqlariga qaramay, Muxtoriyat hukumatini qo'llab-quvvatlash davom etdi. 1917 yil 26-30 dekabrda (1918 yil 8-12 yanvarda) Qo'qon shahrida muslimon ishchi, soldat va dehqon deputatlarining 1-favqulodda s'ezdida Turkiston Muxtoriyatiga munosabat masalasi asosiy masala bo'ldi. Bu syezd 27 - dekabrda Petrograddagi xalq komissarlari Sovetiga telegramma jo'natadi va unda Toshkent Xalq Komissarlari Sovetiga hokimiyatni Turkiston Muxtoriyati hukumatiga topshirish to'g'risida farmoyish berishini so'rab murojaat qiladi. Turkistonni juda katta falokatga olib keluvchi beboshchilik va qo'shhokimiyatchilikning oldini olishga chaqiradi.<sup>58</sup>

Lekin sovet hukumatini Turkiston ishchi va dehqonlarining istaklari qiziqtirmasdi. O'z hukumati nomidan 1918-yil 5-yanvarda I.Stalin Turkistonga yuborgan telegrammasida turkistonliklar harbiy kuchga ega bo'lsalar, Toshkent Sovet Komissariati ularni qurol kuchi bilan tarqatib yuborishlari mumkinligi ta'kidlagan. Bolsheviklar na Qo'qondagi hukumat, na turkistonlik mahalliy ishchilar Toshkentdagি Sovet komissariatini tarqatib yuborish uchun bunday kuchga ega emasligini yaxshi

<sup>53</sup> Победа Октябрьской революции в Узбекистане. Сб. документов. – Т., 1972. Т. II. — С. 59.

<sup>54</sup> M.Cokay.Dekabr Hatirlari. // Yash Turkistan. 1932. № 37. — С. 1-10.

<sup>55</sup> Bulak Bashi. Dekabrning koldirgan doglari // Milli Turkistan. 1952. № 2. 76A. — С. 23-25.

<sup>56</sup> Hayit B. Turkestan im XX. Jahrhundert. Darmstadt. 1956. — С. 63-134.

<sup>57</sup> Hayit B. Basmatschi. — С. 40.

<sup>58</sup> Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000. — Б. 141.

bilardilar. Bu hol xorijiy tarixshunoslikda muxtoriyat hukumati va turkistonlik ishchi va dehqonlarga birinchi ogohlantirish<sup>59</sup>, “shaytonlarcha provokatsiya”<sup>60</sup> deb baholandi.

Shunday qilib, Turkistonda parallel ravishda ish olib boruvchi ikki hokimiyat vujudga keldi. Bunday holga dosh berishni istamagan, yakkahokimlikni maqsad qilib qo’yan bol’sheviklar hokimiyati yana zo’ravonlik siyosatini qo’lladi. Toshkentdagি Sovet hukumati 31-yanvardagi Sovetlarning o’lka s’ezdida Turkiston Muxtoriyati hukumatini tarqatib yuborish, uning a’zolarini qamoqqa olish va bu hukumat apparatini Sovetlar qo’liga topshirish to’g’risida qaror qabul qildi. Shundan keyin Sovet komissariati Qo’ronni zabit etishga tayyorgarlik ko’ra boshladи. 1918-yil 7-fevralda Qo’onga ruslarning M.K.Shkarupa boshchiligidagi jangovar guruhi (140 soldat, 4 ta pulemyot) jo’natiladi va keyinroq ularga dashnoqchilar arman partiyasining 120 soldati kelib qo’shiladi. 19-fevralda Qizil gvardiyachilar Qo’ronni egalladi. Shahar uch kun mobaynida yondi. Turkiston Muxtoriyati hukumati ag’darildi. Qo’qonda 10.000 kishi o’ldirildi, 10 ga yaqin bank, butun Turkistonning paxta birjasi bo’lgan Qo’qon taxminan 3 mlrd. rubl zarar ko’rdi.<sup>61</sup> Shu tariqa Turkiston Muxtoriyati fojeali tugatildi.

Xorijiy tadqiqotlarda mazkur masala qanday yoritiladi?

Nemis tarixshunoslida “Qo’qondagi Turkiston milliy hukumatining ag’darilishi bilan Sovet rahbariyati o’zining haqiqiy basharasini ko’rsatganligi, milliy o’lkalardagi rus bo’lmagan xalqlarning huquqlarini bir tiyinga olmaganligi, bu bilan ular eski milliy zulm siyosatini davom ettirilganligi” ta’kidlanadi.<sup>62</sup>

Xorijiy tarixshunoslida Turkiston Muxtoriyati tugatilishi oqibatlariga ham alohida to’xtalib o’tilgan. Chunonchi, Boymirza Hayitning fikricha, “muxtoriyat va uning hukumati bol’shevistik qizil gvardiyachilar tomonidan qurolli kuch yo’li bilan ag’darilganidan so’ng birinchi marta Turkiston mustaqilligi g’oyasi vujudga kelgan”. Mustafo Cho’qay esa mustaqillik uchun kurash boshlanishini ta’sis majlisining tarqatib yuborilishi bilan bog’laydi. Uning yozishicha, ta’sis majlis mahv etilishi bilan federatsiya to’g’risidagi umidlar ham abadiy yo’qolgan, ular milliy ozodlik, to’liq milliy istiqlol kurashi yo’liga va mustaqil Turkiston davlati uchun kurash yo’liga tushganlar.<sup>63</sup> Yana bir Turkistonlik muhojir Abdulla Boysun esa Turkiston Muxtoriyati hukumatining ag’darilishi va Qo’qon shahrining vayron etilishi milliy maqsadlarni amalga oshirish uchun kurashning yanada keng tus olishiga olib kelganligini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib shuni qayd etish joizki, kommunistik mafkura tazyiqidan xoli bo’lgan xorijiy tarixshunoslida Turkiston xalqlarining milliy davlatchilik g’oyalari uchun kurashi o’zining butun murakkabliklari bilan aks etgan va bunda xorijda muhojirlikda

<sup>59</sup> Hayit, B. Turkestan zwischen Russland und China... —S. 241-242

<sup>60</sup> Hayit, B. Basmatschi. —S. 38-39.

<sup>61</sup> Улуг’ Туркистан. № 68. 9.III. 1918..

<sup>62</sup> Hayit B. Basmatschi—S. 34, 62.

<sup>63</sup> И smoилов X. Туркистан 1917 йилда. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1990. 27 июл; Ўша муаллиф. Туркестан в эпоху двух революций. История СССР. 1990. № 5; Н. Норкулов. Мухториятнинг тугатилиши // Фан ва турмуш. 1990. № 1-3; Ўша муаллиф. Хурриятдан мухториятгача // Фан ва турмуш. 1991. № 2-3; Хасанов М. Альтернатива // Звезда Востока. 1990. № 7; Дониёров Ш. Мухторият кисмати.

bo'lgan 1917 yilda Turkiston voqealari ishtirokchilarining xotiralari katta o'rinni egallagan. Xorijiy mualliflar Turkiston muxtoriyati turkistonliklarning manfaatini himoya qilishni maqsad qilib qo'ygan edi, degan fikrni yakdillik bilan ma'qullaydilar. Turkiston muxtoriyati hukumati ag'darilishi bilan muxtoriyatchilik g'oyasi tugadi va to'la milliy mustaqillik uchun kurash boshlandi, degan xulosaga keladilar. Ular o'sha davrda turkistonliklar o'z taqdirlarini o'z qo'llarida ushlab qola bilmaganlarining asosiy sabablari sifatida bir tomondan milliy tashkilotning kuchli emasligi, milliy rahbarlarning yetarli bo'lмагани hamda siyosiy tomondan to'la pishib yetilmaganligi, milliy ziyorolar orasida birlikning to'la yaratilmaganligi, ayniqsa bu sohada o'sha zamondagi ruhoniy kuchlar tug'dirgan qiyinchilik va to'sqinliklaridan iborat ekanligini, ikkinchi tomondan Sovetlarning kuchli qurolli qo'shinga tayanganini ko'rsatadilar.

Darhaqiqat, mustabid sovet hukumatining harbiy imkoniyatlari, kuch-quvvati endigina tuzilgan Turkiston muxtoriyati va uning tarafдорлари – Turkiston xalqlaridan bir necha bor ustun va kuchli edi. Qariyb yarim asr mobaynida quroq-yarog' va harbiy sohadan uzoqda saqlangan xalq zamonaviy qurollarga ega shafqatsiz bosqinchilar oldida ojizlik kildi. Avvalgi mustabid tuzumning ongli ravishda olib borgan siyosati, ya'ni mahalliy aholiga quroq bermaslik o'z mevasini berdi va Turkiston xalqlarining bo'yniga yangi mustamlakachilik kishani osildi, ularning milliy davlatchilikni tiklash yo'lidagi sa'y-harakatlari fojeali tugadi.